



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING ASOSIY VOSITALARI BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO ANDOZALAR TALABLARI BO‘YICHA TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

IMPROVEMENT OF ACCOUNTING FOR FIXED ASSETS OF MANUFACTURING ENTERPRISES IN ACCORDANCE WITH THE REQUIREMENTS OF INTERNATIONAL STANDARDS

Raxmatjonova Gulmira Erkinboy qizi

Andijon davlat texnika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada korxonalarda asosiy vositalar buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar, xususan MHXS (IAS 16 “Asosiy vositalar”) talablari asosida takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida asosiy vositalarni tan olish, baholash, qayta baholash, amortizatsiya hisoblash hamda hisobdan chiqarish jarayonlari tahlil qilingan. Milliy hisob tizimi bilan xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etilgan. Shuningdek, korxonalarda hisob siyosatini takomillashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, MHXS, IAS 16, amortizatsiya, qayta baholash, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, hisob siyosati, xalqaro standartlar.

В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования бухгалтерского учета основных средств на предприятиях в соответствии с требованиями международных стандартов финансовой отчетности, в частности МСФО (IAS 16 «Основные средства»). В ходе исследования проанализированы процессы признания, оценки, переоценки, начисления амортизации и выбытия основных средств. Выявлены различия между национальной системой учета и международными стандартами, а также предложены пути их устранения. Кроме того, освещены возможности повышения прозрачности и достоверности финансовой отчетности за счет совершенствования учетной политики предприятия.

Ключевые слова: основные средства, МСФО, IAS 16, амортизация, переоценка, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, учетная политика, международные стандарты.

This article examines the issues of improving the accounting of fixed assets in enterprises in accordance with international financial reporting standards, particularly IFRS (IAS 16 “Property, Plant and Equipment”). The study analyzes the processes of recognition, measurement, revaluation, depreciation, and disposal of fixed assets. Differences between the national accounting system and international standards are identified, and ways to eliminate them are proposed. Additionally, the paper highlights opportunities to enhance the transparency and reliability of financial statements through the improvement of accounting policies.

Keywords: fixed assets, IFRS, IAS 16, depreciation, revaluation, accounting, financial reporting, accounting policy, international standards.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish, ayniqsa asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning moliyaviy

barqarorligini ta'minlash hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishda asosiy vositalar hisobini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalar korxonaning moddiy-texnik bazasini tashkil etib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu sababli ularni hisobga olish tizimini xalqaro andozalar darajasida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) asosida asosiy vositalar hisobini yuritish korxonalarga moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash imkonini beradi.[1]

Hozirgi kunda ko'plab korxonalarda asosiy vositalar hisobi milliy standartlar asosida yuritilmoqda. Biroq, milliy standartlarning ayrim jihatlari xalqaro talablar darajasiga to'liq javob bermaydi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada taqqoslanishini qiyinlashtiradi. Shu bois asosiy vositalar hisobini MHXS asosida takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.[2]

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri — bu IAS 16 standartini to'liq joriy etishdir. Mazkur standart asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va hisobdan chiqarishning yagona metodologiyasini belgilaydi. Korxonalarda ushbu standart talablarini to'liq qo'llash asosiy vositalar hisobining aniqligini va ishonchliligini oshiradi.

Takomillashtirishning yana bir muhim yo'nalishi — bu amortizatsiya siyosatini qayta ko'rib chiqishdir. Amaliyotda ko'plab korxonalarda amortizatsiya hisoblashda faqat to'g'ri chiziqli usul qo'llaniladi. Biroq MHXS turli amortizatsiya usullarini qo'llash imkonini beradi. Bu esa aktivlardan foydalanish samaradorligini yanada aniq aks ettirishga yordam beradi.

Shuningdek, asosiy vositalarni hisobga olishda qayta baholash modelini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu model asosida aktivlar ularning bozor qiymatiga yaqinlashtiriladi. Natijada korxonaning moliyaviy holati yanada real aks ettiriladi.

Takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan yana biri — bu komponentlar bo'yicha hisob yuritishni joriy etishdir. Bu usul asosiy vositalarning alohida qismlarini alohida hisobga olish imkonini beradi. Natijada amortizatsiya hisoblash yanada aniqlashadi.

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy axborot tizimlari yordamida asosiy vositalar harakati ustidan nazorat kuchaytiriladi, amortizatsiya hisoblash avtomatlashtiriladi va hisobotlar tezkor shakllantiriladi.

Bundan tashqari, asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda ichki audit tizimini rivojlantirish zarur. Ichki audit asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash va hisobdagi xatoliklarni aniqlash imkonini beradi.

Asosiy vositalar hisobini MHXS asosida takomillashtirishda kadrlar malakasini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Xalqaro standartlarni to'liq tushunadigan mutaxassislar mavjud bo'lmasa, ularni amaliyotga joriy etish qiyinlashadi.

Shuningdek, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatiladi:

- MHXS bo'yicha bilim yetishmasligi;
- dasturiy ta'minotning moslashmaganligi;
- milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun korxonalarda kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Korxona asosiy vositalari hisobini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. MHXSga to'liq o'tish
2. Amortizatsiya siyosatini optimallashtirish
3. Qayta baholash tizimini joriy etish
4. Komponentlar usulini qo'llash
5. Raqamli hisob tizimlarini joriy etish
6. Ichki auditni kuchaytirish
7. Moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish jarayonida muhim yo'nalishlardan yana biri — bu hisob siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish hisoblanadi. Korxona hisob siyosati MHXS

talablariga muvofiq ishlab chiqilishi va unda asosiy vositalar bilan bog‘liq barcha jarayonlar, jumladan, baholash, amortizatsiya, qayta baholash va hisobdan chiqarish tartiblari aniq belgilanishi zarur. Bu esa hisob yuritishda yagona yondashuvni ta‘minlaydi va xatoliklar ehtimolini kamaytiradi.

Shuningdek, asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda aktivlarning real qiymatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda ko‘plab korxonalarda asosiy vositalar tarixiy qiymatda hisobga olinadi va ularning bozor qiymati e‘tiborga olinmaydi. Natijada moliyaviy hisobotlarda aktivlarning haqiqiy qiymati aks ettirilmaydi. Shu sababli MHXS talablariga muvofiq ravishda qayta baholash mexanizmlarini joriy etish zarur.

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda qadrsizlanishni aniqlash tizimini joriy etish ham muhim hisoblanadi. Aktivlarning qiymati turli omillar ta‘sirida kamayishi mumkin. Agar bu o‘z vaqtida hisobga olinmasa, moliyaviy hisobotlar noto‘g‘ri shakllanadi. Shu bois aktivlarning qadrsizlanishini muntazam ravishda baholab borish zarur.

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning yana bir muhim jihat — buinventarizatsiya jarayonini takomillashtirishdir. Inventarizatsiya asosiy vositalarning haqiqiy mavjudligini aniqlash, ularning holatini baholash va hisob ma‘lumotlari bilan solishtirish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda inventarizatsiyani avtomatlashtirish, masalan, RFID yoki QR-kod texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshirish samaradorlikni oshiradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab korxonalarda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi past darajada. Bu esa ularni boshqarish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu maqsadda quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- fond qaytimi (asosiy vositalardan olinayotgan daromad darajasi);
- fond sig‘imi (mahsulot ishlab chiqarishda asosiy vositalar ulushi);
- yangilanish koeffitsienti;
- eskirish darajasi.

Ushbu ko‘rsatkichlar asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribani o‘rganish va joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda asosiy vositalar hisobi to‘liq MHXS asosida yuritiladi va bunda zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llaniladi. Ushbu tajribani o‘rganish va milliy amaliyotga moslashtirish hisob tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish zarur. MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar bo‘yicha to‘liq va ishonchli ma‘lumotlar aks ettirilishi kerak. Bu esa foydalanuvchilarga to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish quyidagi strategik model asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. Diagnostika bosqichi- mavjud hisob tizimini tahlil qilish
2. Moslashtirish bosqichi- MHXS talablariga moslashtirish
3. Joriy etish bosqichi- yangi tizimni amaliyotga tatbiq etish
4. Nazorat bosqichi- monitoring va audit
5. Takomillashtirish bosqichi- doimiy ravishda tizimni yangilash

16-sonli "Asosiy vositalar" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tahlil qilish, BHXSga muvofiq asosiy vositalarni hisobga olish va audit jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

16-son BHXSga binoan, asosiy vositalar moddiy ob‘ektlar hisoblanadi, agar ular quyidagi shartlarga javob bersa: a) tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish yoki xizmatlar ko‘rsatish, boshqalarga ijaraga berish yoki ma‘muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan; b) kutilganidek bir necha davrdan ko‘proq foydalanilsa.

A.F. Myalkina va boshqa mualliflar ““Mehnat vositalari” atamasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning progressivligini belgilaydi. “Asosiy vositalar” tushunchasi mamlakat milliy boyligining asosiy elementi, “Ishlab chiqarishning asosiy fondlari” moddiy-texnik bazani va

texnologik tuzilmaning progressivligini belgilaydi. “Asosiy vositalar” atamasi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni aks ettirish uchun ishlatiladi. “Asosiy kapital” atamasi investitsiyalarni hududlar, moliyalashtirish manbalari, mulkchilik shakllari, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha aniqlashda ishlatiladi. “Ishlab chiqarish apparati” ishlab chiqarish quvvatini aniqlash va ishlatilgan texnologiyalarni baholash bilan o‘lchanadi. “Ishlab chiqarish potentsiali” mavjud real aktivlarning korxonaning ishlashi va ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash qobiliyati sifatida ko‘rib chiqiladi” [3]deb e’tirof etadilar.

Asosiy vositalar kichik turlar va uzoq muddatli aktivlarning tarkibiy qismi sifatida, uzoq muddatli aktivlarning barcha qonuniy belgilab qo‘yilgan xususiyatlariga mos keladi, ammo ular boshqa tarkibiy qismlardan o‘zining moddiy shakli, holati va ishlashga yaroqliligi va biologik o‘zgarishlarning yo‘qligi bilan ajralib turadi.

Ular qarz emas, boshqa korxonalarga sarmoyalar kiritilmaydi, asosiy vositalar qiymati qonun bilan tartibga solingan qiymat chegarasidan yuqori bo‘lishi kerak. Ushbu masala bo‘yicha ba’zi bir aniqliklarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, masala shundaki, har qanday kompaniya buxgalteriya siyosatini mustaqil ravishda ishlab chiqishi kerak.

Shuningdek, 16-sonli "Asosiy vositalar" BHXS alohida ahamiyatsiz aktivlarni (masalan, shablonlar, asboblari va shtamplar va boshqalar) bitta asosiy vositaga birlashtirish imkoniyatini nazarda tutadi va aktivning eskirishi ushbu aktivdan maqsadga muvofiq foydalanilishi mumkin bo‘lgan paytdan boshlanadi.

O‘zbekistonning aksariyat korxonalarida asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy muammosi aktivlarni tan olish va tasniflash, ularning balans qiymatini aniqlash, shuningdek tan olinishi kerak bo‘lgan eskirish va tushirish zararlaridir.

16-son BXHSGa binoan «Asosiy vositalar» quyidagicha tasniflanadi: yer; binolar; mashina va uskunalari; avtomobillar; kemalar; samolyotlar; mebel va jihozlar.

Agar mavjud ob’ektlardan foyda olish kutilmasa, bunday aktivlarning balans qiymati taqsimlanmagan foyda hisobidan chiqarilishi kerak.

Asosiy vositalarning eskirganligini to‘g‘ri aniqlash, asosiy vositalarning eskirishini tekshirish bo‘yicha muammoli muomalalar paydo bo‘lishining oldini olish uchun bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra to‘rt bosqichda o‘tkazish tavsiya etiladi:

- 1) asosiy vositalarning mavjudligini haqiqiy tekshirish;
- 2) amaldagi asosiy vositalarning amortizatsiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- 3) asosiy vositalarning eskirishi auditi;
- 4) asosiy vositalarning eskirishi buxgalteriya registrlari va hisobotlarida to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish.

16-sonli "Asosiy vositalar" BHXSning 41-bandiga muvofiq amortizatsiya usulini tanlashning mezonini asosiy vositalardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish shakliga maksimal muvofiqlikdir.[4]

16-sonli "Asosiy vositalar" BHXSda ko‘rsatilgan standartlar asosiy vositalarning tannarxi bo‘yicha to‘liq va aniq tavsifini o‘z ichiga oladi, ularning eskirishi, yo‘q qilinishi, tugatilishi, qayta baholanishi, ta’mirlanishi va ulardan foydalanish samaradorligi, bu esa buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi muammoli masalalarni hal qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi korxonalar xorijiy sheriklar bilan ish olib boradigan buxgalterlarning ishini osonlashtiradi. Asosiy vositalar auditi murakkab jarayon ekanligi va asosiy vositalar to‘g‘risidagi normativ hujjatlarning o‘zgarishi — ularning eskirishi, tasnifini hisobga olgan holda, asosiy vositalar hisobini xalqaro standartga muvofiq ravishda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki asosiy vositalar auditi korxonaning umumiy auditining muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Accounting Standards Board. Conceptual Framework for Financial Reporting. London, 2021.
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi / T. Qudratov va boshqalar. – Toshkent, 2019

3. Qo‘ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T.: 2017. – 70 b.
4. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 236 b.

UDK 334.722-055.2:004

**AYOLLAR TADBIRKORLIGI FAOLIYATIDA RAQAMLI INTEGRATSIYA
DARAJASINI BAHOLASH**

**ОЦЕНКА УРОВНЯ ЦИФРОВОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ЖЕНСКОМ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ**

**ASSESSMENT OF THE LEVEL OF DIGITAL INTEGRATION IN WOMEN'S
ENTREPRENEURSHIP**

Kamoldinova Nargiza Anvarovna

Andijon davlat texnika instituti Iqtisodiyot kafedrası assistenti

Annotatsiya

Maqolada ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash metodologiyasi taklif etilib, u besh o‘lcham — raqamli kirish, raqamli ko‘nikmalar, onlayn savdo, raqamli to‘lovlar va ijtimoiy tarmoq marketingi — asosida qurilgan. Rasmiy statistik ma’lumotlar (Statistika agentligi, Jahon banki, xalqaro tadqiqotlar) asosida O‘zbekistondagi va past hamda o‘rta daromadli mamlakatlardagi ko‘rsatkichlar jadval va diagrammalarda tahlil qilinib, ayol tadbirkorlarning raqamli integratsiya darajasi baholangan va uni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, raqamli integratsiya, raqamli iqtisodiyot, e-commerce, raqamli ko‘nikmalar, gender raqamli tafovut, raqamli to‘lovlar.

В статье предлагается методология оценки уровня цифровой интеграции в женском предпринимательстве, основанная на пяти измерениях: цифровой доступ, цифровые навыки, онлайн-шопинг, цифровые платежи и маркетинг в социальных сетях. На основе официальных статистических данных (Статистическое агентство, Всемирный банк, международные исследования) в таблицах и диаграммах анализируются показатели в Узбекистане и странах с низким и средним уровнем дохода, оценивается уровень цифровой интеграции женщин-предпринимателей и разрабатываются предложения по его повышению.

Ключевые слова: женское предпринимательство, цифровая интеграция, цифровая экономика, электронная коммерция, цифровые навыки, гендерный цифровой разрыв, цифровые платежи.

The article proposes a methodology for assessing the level of digital integration in women's entrepreneurship, which is built on five dimensions - digital access, digital skills, online shopping, digital payments and social media marketing. Based on official statistical data (Statistics Agency, World Bank, international studies), indicators in Uzbekistan and low- and middle-income countries are analyzed in tables and diagrams, the level of digital integration of women entrepreneurs is assessed and proposals are developed to increase it.

Keywords: women's entrepreneurship, digital integration, digital economy, e-commerce, digital skills, gender digital gap, digital payments.